



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,  
9-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganish	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiov Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development .....	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari .....	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati .....	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari .....	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi .....	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari .....	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari .....	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari .....	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili .....	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari .....	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari .....	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni .....	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili .....	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish .....	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari .....	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish .....	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish .....	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi .....	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish .....	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari .....	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari .....	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili .....	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		<a href="#">Turumbetova Aygul Yusupbaevna</a>	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		<a href="#">Ummatkulova Sayyora Shovkatovna</a>	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		<a href="#">Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov</a>	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		<a href="#">Ermatova Robiya Bekjonali qizi</a>	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		<a href="#">Ismailova Shaira Ferdausovna</a>	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners.....	204
		<a href="#">Maqsudova Gulnoz Olimovna</a>	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		<a href="#">Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi</a>	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		<a href="#">Sharipova Muhabbat Erkinovna</a>	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		<a href="#">Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich</a>	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv.....	222
		<a href="#">Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li</a>	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili.....	227
		<a href="#">Yuldashova Dilafuz Shavkatovna</a>	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....	229
		<a href="#">Safarova Madina Azamat qizi</a>	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		<a href="#">Аскарлова Гулрух Оринбасаровна</a>	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века.....	239
		<a href="#">Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб</a>	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана.....	242
		<a href="#">Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек</a>	



# BOSHLANG'ICH SINFLAR TEKNOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR: MUAMMO VA UNING YECHIMLARI

Mamatova Karomat Ilhomjonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni (muammoli ta'lim, loyihalash metodi, o'yin texnologiyalari va AKT) joriy etishning ahamiyati hamda bu jarayonda yuzaga kelayotgan asosiy muammolar tahlil qilingan. Maqolada maktablarning moddiy-texnik bazasi va o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq va amaliy yechimlar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, texnologiya, pedagogik texnologiya, ijodkorlik, kreativlik, jamoaviy ishlash, interfaol metodlar, blits, guruhlarga ajratish, 4K modeli, didaktik va rol o'yinlar, tafakkur, integratsiya.

**Abstract:** This article analyzes the importance of introducing modern pedagogical technologies (problem-based learning, design methods, game technologies, and ICT) in primary school technology lessons and the main problems arising in this process. The article examines the problems associated with the material and technical base of schools and the methodological training of teachers and proposes specific and practical solutions to eliminate them.

**Key words:** primary school, technology, pedagogical technology, creativity, teamwork, interactive methods, blitz, grouping, 4K model, didactic and role-playing games, thinking, integration.

**Аннотация:** В данной статье анализируется важность внедрения современных педагогических технологий (проблемно-ориентированное обучение, методы проектирования, игровые технологии и ИКТ) в уроки технологии в начальной школе, а также основные проблемы, возникающие в этом процессе. В статье рассматриваются проблемы, связанные с материально-технической базой школ и методической подготовкой учителей, и предлагаются конкретные и практические решения для их устранения.

**Ключевые слова:** начальная школа, технология, педагогические технологии, креативность, командная работа, интерактивные методы, блиц, группировка, модель 4K, дидактические и ролевые игры, мышление, интеграция.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining tubdan yangilanishi, pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilish, o'qitish metodlariga ilg'or texnologiyalarni joriy etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Chunki zamonaviy jamiyat axborot texnologiyalariga asoslangan bilimga, ijodkorlikka va mustaqil fikrlashga ega shaxslarni talab qilmoqda. Shu bois, boshlang'ich ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar - ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, maqsadga yo'naltirilgan, tizimli, rejalashtirilgan va ilmiy asoslangan o'qitish usullari majmuasidir. Boshqacha qilib aytganda, bu texnologiyalar o'quv jarayonini avtomatlashtirish, interfaollikni oshirish, o'quvchini faol subyektga aylantirish va bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

M. Ahadova ta'kidlaganidek, "Zamonaviy pedagogik jarayonlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini kuchaytirib, o'quvchilarning ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi". Shu bois, o'qituvchi zamonaviy texnologiyalarni puxta egallashi va ularni dars jarayonida ijodkorlik bilan tatbiq etishi zarur<sup>[1]</sup>.

Shuningdek, A. Alimov o'z tadqiqotida shunday fikr bildiradi: "Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini qiziqarli va interfaol shaklga keltiradi". Bu fikr shuni anglatadiki, texnologiyalar faqat axborot manbai emas, balki ta'lim samaradorligini oshiruvchi kuchli didaktik vosita sifatida ham xizmat qiladi<sup>[2]</sup>.

Shu bilan bir qatorda, T. Ismatillayeva o'z ilmiy maqolasida "Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar orqali dars samaradorligini oshirish" masalasiga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, u shunday yozadi: "Interfaol metodlar o'quvchini faollikka undaydi, uni o'rganish jarayonining markaziga qo'yadi hamda darsni shunchaki bilim uzatish emas, balki fikrlash jarayoniga aylantiradi". Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqot o'rnatadi <sup>[3]</sup>.

Bundan tashqari, S. Ruzieva o'z izlanishlarida ta'kidlaganidek, "Maktabgacha va boshlang'ich yoshdagi bolalar faoliyat asosida rivojlanadi, shuning uchun o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ularning tafakkuri, nutqi va ijodiy fikrlashini shakllantiradi". Bu esa ta'lim jarayonida faol o'qitishning naqadar muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi <sup>[4]</sup>.


Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'qitish samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Chunki bu texnologiyalar orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin ifoda etadi, mustaqil qaror qabul qiladi, ijodkorlik bilan ishlaydi hamda o'z-o'zini rivojlantirishga intiladi.

Masalan, "Aqliy hujum", "Blits so'rov", "Klaster", "Venn diagrammasi", "Sinkveyn", "Muammoli ta'lim" va "Loyiha metodi" kabi metodlar o'quvchilarning tafakkurini faollashtiradi. Shuningdek, bu metodlar o'quvchilarda tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash faqat bilim berish vositasi emas, balki o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida ham qaraladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning tafakkuri, nutqi, psixologik holati va dunyoqarashi shakllanadigan eng muhim davrdir. Shu bois, bu bosqichda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'ta muhimdir. Avvalo, interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni faollikka undaydi, ularning fikrlash jarayonini tezlashtiradi. Masalan, "Aqliy hujum" metodi orqali o'quvchilar bir muammoni yechish uchun turli g'oyalarni ilgari suradilar, bu esa ularni erkin fikrlashga o'rgatadi. Bundan tashqari, "Klaster" usuli yordamida o'quvchilar bir mavzu doirasidagi tushunchalarni tizimlashtirishni o'rganadilar, bu esa ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. "Venn diagrammasi" yordamida esa o'quvchilar taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

Bizga ma'lumki, 1–2-sinf o'quvchilari maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan va shu muhitga asta-sekin moslashayotgan yosh avlodidir. Ularning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib kamol topishi uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Darsliklar va ulardagi rang-barang lavhalar hamda mavzular o'quvchining beixtiyor diqqatini o'ziga tortadi. Ayniqsa, texnologiya va tasviriy san'at darsliklari o'quvchilarning sevimli kitoblari hisoblanadi. Chunki bolalar ko'rgazmalilikni yaxshi ko'radilar.



1-rasm: Asosiy muammolar

Maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik holatlarini hisobga olgan holda texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu yoshdagi o'quvchilarning diqqatini ko'rgazmalilik ko'proq tortadi. Ularda o'yin faoliyatiga moyillik nihoyatda kuchli bo'ladi. Bu holatni hisobga olgan holda bolaga bilim berish, u bilan do'stona munosabatda bo'lish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda yuqori samaradorlik beradi.



Agar o'quvchini har doim bir xil narsani o'rgatish bilan cheklanib qolinsa, bola tez charchaydi, natijada o'yin faoliyatiga moyillik kuchayadi. Shunday ekan, bolada texnologiya darslariga qiziqishni oshirishda to'g'ri yondashish maqsadga muvofiqdir. Bunda asosan amaliy topshiriqlarni yakka tartibda emas, balki jamoaviy loyihalar asosida tashkil qilish o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqsad o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini shakllantirishdan iboratdir.

O'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishda o'qituvchi tayyor andoza bilan ishlamasdan, mavzuga oid biror muammoni o'quvchilarga havola etishi kerak. Masalan, "Qushlar uyasini yasash" mavzusi berilgan bo'lsa, aynan hamma bir xil usulda yasashi shart degan jumlaning qo'llash mutlaqo noto'g'ridir. Chunki har bir o'quvchida o'ziga xos, takrorlanmas iste'dod va qobiliyat mujassam, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, har bir o'quvchi ongida o'zgacha fikrlash va dunyoqarash mavjud. Shuning uchun "Qushlar uyasi uchun qog'ozdan qanday shakl o'ylab topish mumkin?" yoki "Uni qanday materiallardan tayyorlash mumkin?" kabi savollar bilan ularni ushbu mavzuga olib kirish lozim.

O'quvchiga pedagog berilgan mavzu yuzasidan qiziqarli mulohazalar bildirib, ularda mavzu yuzasidan o'ylash va fikrlashga undaydigan muammoli vaziyatlar yaratish orqali qiziqishni oshirishi zarur. Bola bir darsda o'zi bajargan ishidan rohatlandimi? Demak, u albatta keyingi texnologiya darslarini ham qiziqish bilan kutadi. Texnologiya fani o'qituvchisi darsga kirib borishi bilan bolajonlar ko'zida bir olam quvonchni ko'radi. "Ustoz nima mavzu o'tar ekanlar?", "Biz bugungi darsda nima yasar ekanmiz?" degan savollar o'quvchiga tinchlik bermaydi.

Jamoaviy hamkorlikda ishlash o'quvchilarni birdamlikka, ahillikka va tezkorlikka undaydi. O'quvchilar 4–5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi. Birgalikda yirik maketlar ustida fikr almashadilar va ularni o'zlari yaratadilar. Bu borada har bir o'quvchi o'z vazifasini bajarib, hamkorlikda ishlash usullarini o'rganadi. Ish jarayonida o'quvchilarning biri qirqadi, biri yopishtiradi, boshqa biri esa turli xil bejirim bezaklar asosida uni bezatadi.

Bu jarayonlarni amalga oshirishda muloqot madaniyatiga nihoyatda e'tibor qaratish lozim. Chunki guruhlar o'z ishlarini yakunlab bo'lgach, uni sinf va o'qituvchi oldida himoya qiladilar. Yaratgan narsalarining afzalliklarini tushuntirib berishga harakat qiladilar. Ish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilish o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini yanada rivojlantirishga zamin yaratadi.

O'quvchilar o'ylaydi: "Nega biz yasagan qog'oz quti mustahkam chiqmadi?", "Bunda biz qayerda xatoga yo'l qo'ydik?" kabi bir qancha savollar ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Bu kabi yaxshi natijalarga erishish uchun 4K modeliga asoslangan interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalash, masalan, matematika, tabiiy fan, tasviriy san'at kabi fanlar bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Darsliklarda tabiiy fan bilan bog'lab o'tish mumkin bo'lgan mavzular juda ko'p. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning hayotga va tabiat ne'matlariga bo'lgan hurmati hamda mehrini tobora kuchaytirib boradi, shu bilan birgalikda qo'l motorikasini ham rivojlantiradi.

Texnologiya fanining matematika fani bilan nechog'lik bog'liqligini har bir darsda ko'rishimiz mumkin. Dars davomida mavzu yuzasidan o'lchovlar olinadi, chizg'ichdan foydalaniladi, geometrik figuralardan foydalaniladi. Biror narsani yasashda o'lchovlar olinmasa yoki chizg'ichdan foydalanilmasa, kerakli shakl va andozaga ega bo'lish qiyin masaladir. Tasviriy san'at ham shular jumlasidandir. Chunki har qanday yasaladigan narsa, avvalo, chizib olinadi, keyin esa yasash jarayoniga o'tiladi.

Bundan tashqari, didaktik va rolli o'yinlar asosida darslarni samarali tashkil qilishda ular asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsga jalb qilishning eng yaxshi usullaridan biridir. O'yin faoliyati asosida olib borilgan dars boladagi tez charchab qolish holatlarining oldini oladi.

Texnologiya darslarida turli hayotiy va kasbiy rollarni modellashtirish mumkin. Masalan, "Dizaynerlar studiyasi" o'yini. Bunda matolar bilan ishlash yoki qog'ozdan kiyim maketlarini tayyorlash mavzusi berilgan bo'lsa, sinf modalar uyiga aylanadi. Jarayonda o'quvchilar dizayner, tikuvchi va model rollarini ijro etadilar. Bu o'yin davomida o'quvchilar o'zlarini mas'uliyatli va ishbilarmon shaxs sifatida qabul qiladilar.

Yoki "Sifat nazorati" o'yinini olib qaraydigan bo'lsak, unda har bir guruh tayyorlagan buyumni (masalan, plastilindan yasalgan idishni) boshqa guruhga beradilar. Bu yerda ikkinchi guruh "sifat nazoratchisi" sifatida buyumning mustahkamligi, chiroylligi va aniqligini baholaydi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarda pedagogik konfliktlarning kelib chiqishining oldini olishda hamda o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat va adolatli baholash mezonlarini shakllantirishga yordam beradi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'z samaradorligiga ega bo'lgan, o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinayotgan "Flipped Classroom" hamda AKT elementlarisiz dars jarayonini tasavvur qilib bo'lmaydi. Texnologiya darslarida amaliy ishga ko'proq vaqt ajratish uchun nazariy qismni va asboblardan xavfsiz foydalanish qoidalarini oldindan rejalashtirish mumkin.

Bunda o'qituvchi o'quvchilarga yoki ota-onalarning Telegram guruhlariga qaychi, yelim yoki igna bilan ishlash xavfsizligi hamda yasaladigan buyumning qisqa, 2 daqiqalik videoyo'riqnomasini yuborishi mumkin.

Shunda dars jarayonida o'qituvchi nazariy tushuntirish va xavfsizlik qoidalarini qayta-qayta takrorlashga vaqt sarflamaydi, aksincha, darsning dastlabki daqiqalaridan boshlab o'quvchilar bilan amaliy mashg'ulot olib boradi va ijodiy faoliyatga kirishadi. Natijada o'qituvchi ta'lim samaradorligiga erishadi, vaqtdan unumli foydalanadi hamda o'tiladigan mavzu to'liq yoritiladi.

### Samarali yechimlar

1. **Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning):** O'quvchilarga kichik guruhlarda qog'oz, mato yoki chiqindi materiallardan foydalanib, tayyor mahsulot (masalan, maket, o'yinchoq) yasash vazifasini topshirish. Bu ularning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.
2. **Multimedia va virtual texnologiyalar:** Ish jarayonini to'liq ko'rsatib beruvchi videoqo'llanmalar va taqdimotlardan foydalanish. Murakkab texnologik jarayonlarni qadam-baqadam ekran orqali namoyish etish.
3. **"Aqliy hujum" va "Klaster" metodlari:** Yangi mavzuni tushuntirishdan oldin o'quvchilardan materiallar va ularning xususiyatlari haqida fikrlarini yig'ish<sup>[4]</sup>.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda eng muhim masalalardan biri shundaki, o'qituvchi tayyor namunani taqdim qiluvchi bo'libgina qolmasdan, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga harakat qilishi kerak. O'quvchilar har bir bajarayotgan amaliy ishidan zavqlanishi lozim. Albatta, bunda pedagogik hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda nafaqat o'qituvchi va o'quvchi, balki ota-ona ham amaliy jarayonga jalb qilinishi kerak.

Bugungi kunda quvonarli holatlardan biri shundaki, ota-onalarning ko'pchiligi farzandlarining ta'lim olish jarayoniga katta e'tibor va qiziqish bilan qaramoqda, texnologiya darslarida uyga berilgan vazifalarni birgalikda bajarmoqda. Bu ham o'quvchining texnologiya faniga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, masalan, 4K, STEAM va loyiha metodi kabi yondashuvlarni qo'llash texnologiya darslarini qiziqarli qilish bilan bir qatorda o'quvchilarning sensor motorikasini va ijodiy fikrlashini uyg'unlashtirib, ijodkorlik qobiliyatini yanada rivojlantiradi. O'quvchilarning hamkorlikda ishlashi esa o'zaro do'stona va iliq munosabatlarni ham shakllantiradi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va ularni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor shaxs sifatida shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bu texnologiyalar o'quvchilarni zamonaviy jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh, bilimdon va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarini an'anaviy qolipdan chiqarib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kun talabidir. Bu darslar shunchaki oddiy qo'l mehnati (qog'oz qirg'ich yoki loy qorish) emas, balki bolada kreativ fikrlash, muhandislik elementlari va muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradigan poydevor hisoblanadi.

Demak, har bir o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur o'rganib, ularni dars jarayonida ijodkorlik bilan tatbiq etsa, ta'lim sifati yanada yuqori bosqichga ko'tariladi. Shu bois, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash nafaqat bugungi kun talabi, balki kelajak uchun mustahkam zamin yaratish vositasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahadova M. (2025). Zamonaviy pedagogik jarayonlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish va uning o'quvchilarning natijalariga ta'siri // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. - 3(6).
2. Alimov A. (2025). Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. - 3(9).
3. Ismatillayevna T. M. (2025). Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar orqali dars samaradorligini oshirish // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. - 2(2). - B. 446-448.
4. Ruzieva S. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning o'rni // Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. - 1(1).
5. Zilolaxon K. (2025). Improving the Methodology of Developing Phonetic Competencies of Primary School Students // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. - 3(9).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.